

O‘ZBEK NASRIDA OT OBRAZI VA CHAVANDOZLIK SAN’ATINING BADIY TALQINI (“ULOQDA” VA “OT EGASI” HIKOYALARI MISOLIDA)**Assatullayeva Durdona Asatullayevna****<https://doi.org/10.5281/zenodo.19480429>**

Annotatsiya. Mazkur maqolalada o‘zbek milliy madaniyatining muhim qismi bo‘lgan chavandozlik san’ati tarixiy, badiiy va ma’naviy jihatdan keng tahlil qilinadi. Xususan, Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hamda Shukur Xolmirzayevning “Ot egasi” hikoyalari asosida ot va inson o‘rtasidagi munosabat, chavandozlikning milliy qadriyat sifatidagi o‘rni yoritib beriladi.

Maqolalarda chavandozlik nafaqat sport yoki o‘yin sifatida, balki jasorat, sadoqat, mehr-oqibat va insoniylik timsoli sifatida talqin etiladi. Shuningdek, ushbu asarlar orqali xalqona xarakter, ijtimoiy muhit va inson ruhiyatidagi o‘zgarishlar chuqur ochib berilgan. Ot obrazi badiiy adabiyotda ramziy ma’no kasb etib, insonning ichki dunyosi, erkinlikka intilishi va ma’naviy qadriyatlari bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Tadqiqot natijasida chavandozlik san’ati o‘zbek xalqining tarixiy merosi sifatida bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolayotgani, uning yosh avlod tarbiyasida muhim o‘rin tutishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: chavandozlik san’ati, ot timsoli, ot va inson munosabati, milliy qadriyatlar, xalqona xarakter, o‘zbek nasri, badiiy talqin, sadoqat, jasorat, mehr-oqibat, ruhiy kechinma, ijtimoiy muhit, Abdulla Qodiriy, “Uloqda” hikoyasi, Shukur Xolmirzayev, “Ot egasi” hikoyasi.

Аннотация. В данном комплексе статей всесторонне анализируется искусство наездничества как важная часть национальной культуры узбекского народа с исторической, художественной и духовной точек зрения. В частности, на основе рассказа «Улоқда» Абдулла Кодирий и рассказа «Владелец коня» («От Егаси») Шукур Холмирзаев раскрываются взаимоотношения человека и лошади, а также значение наездничества как национальной ценности. В статьях наездничество трактуется не только как вид спорта или игры, но и как символ мужества, преданности, гуманизма и человечности. Кроме того, через данные произведения глубоко освещаются народный характер, социальная среда и внутренние изменения в психологии человека. Образ лошади в художественной литературе приобретает символическое значение и раскрывается в связи с внутренним миром человека, его стремлением к свободе и духовными ценностями.

В результате исследования обосновывается, что искусство наездничества, являясь историческим наследием узбекского народа, сохраняет свою актуальность и в наши дни, играя важную роль в воспитании молодого поколения.

Ключевые слова: искусство наездничества, образ лошади, взаимоотношения человека и лошади, национальные ценности, народный характер, узбекская проза, художественная интерпретация, преданность, мужество, милосердие, духовные переживания, социальная среда, Abdulla Qodiriy, рассказ «Улоқда», Shukur Xolmirzayev, рассказ «Владелец коня» («Ot egasi”)

Annotation. This collection of articles provides a comprehensive analysis of the art of horsemanship as an important part of Uzbek national culture from historical, artistic, and spiritual perspectives. In particular, based on the stories “Uloqda” by Abdulla Qodiriy and “The Owner of the Horse” (“Ot egasi”) by Shukur Xolmirzayev, the relationship between humans and horses and the role of horsemanship as a national value are explored. The articles interpret horsemanship not only as a sport or game, but also as a symbol of courage, loyalty, humanity, and compassion. Furthermore, these literary works reveal the folk character, social environment, and psychological transformations of individuals.

The image of the horse acquires symbolic meaning in literature and is associated with the inner world of a person, their aspiration for freedom, and spiritual values. The study concludes that horsemanship, as a historical heritage of the Uzbek people, remains relevant today and plays an important role in the upbringing of the younger generation.

Keywords: horsemanship art, horse image, human–horse relationship, national values, folk character, Uzbek prose, artistic interpretation, loyalty, courage, compassion, psychological experience, social environment, Abdulla Qodiriy, the story “Uloqda”, Shukur Xolmirzayev, the story “The Owner of the Horse” (“Ot egasi”).

O‘zbek adabiyoti va xalq madaniyatida ot timsoli qadimdan alohida o‘rin tutgan bo‘lib, u inson hayotidagi amaliy yordamchi sifatidan tashqari, ma‘naviy va madaniy qadriyatlarni ifodalovchi ramz sifatida ham talqin etilgan. Chavandozlik san‘ati esa faqat ot minish yoki sport mahorati emas, balki inson va ot o‘rtasidagi chuqur munosabat, jasorat, sadoqat va mehr-oqibatning badiiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Milliy qadriyatlar, xalqona xarakter va ijtimoiy muhit o‘zbek nasrida ot va chavandoz timsollari orqali boy va ta‘sirli badiiy tasvir topadi.

Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasida ot timsoli insonning jasorat, mardlik va sadoqat kabi fazilatlarini yoritishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, Shukur Xolmirzayevning “Ot egasi” asarida ham ot va inson o‘rtasidagi ruhiy kechinmalar, ijtimoiy muhit, mehr-oqibat va insoniy qadriyatlar orqali chavandozlik san‘atining badiiy talqini namoyon bo‘ladi.

Bu hikoyalar o‘zbek nasrida ot timsolining faqat badiiy dekorativ vazifasi bilan cheklanmasdan, inson ruhiyati va ijtimoiy munosabatlarni yoritishdagi rolini ochib beradi.

Ushbu maqolada, shu hikoyalar asosida, chavandozlik san‘atining badiiy, ma‘naviy va madaniy ahamiyati, inson-ot munosabatining ramziy talqini, milliy qadriyatlar va xalqona xarakter elementlari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, adabiy asarlardagi sadoqat, jasorat va mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlar, ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holatlar hamda ot timsolining o‘zbek adabiyotidagi o‘rni yoritiladi. Chavandozlik san‘ati o‘zbek xalqining qadimiy madaniy meroslaridan biri bo‘lib, u asrlar davomida xalq hayoti, urf-odatlar va dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib kelgan. Bu san‘at turi nafaqat jismoniy mahoratni, balki insonning ruhiy barkamolligini, jasoratini va tabiat bilan uyg‘unligini ham ifodalaydi.

Ayniqsa, ot va inson o‘rtasidagi aloqalar o‘zbek xalqining mentalitetida alohida o‘rin tutadi. Chavandozlikning shakllanishi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi hayot tarzi bilan chambarchas bog‘liq. O‘tmishda ot inson uchun transport vositasi, jangovar qurol, ovchilikda yordamchi va sodiq do‘st bo‘lgan. Shu bois chavandozlik asta-sekin oddiy ehtiyojdan san‘at darajasiga ko‘tarilgan. Chavandozlik san‘atining markazida ot va inson o‘rtasidagi chuqur aloqa yotadi. Ot o‘zbek xalqida nafaqat hayvon, balki do‘st, sirdosh va sodiq hamroh sifatida qaraladi.

Shu sababli otga mehr bilan munosabatda bo‘lish, uni parvarish qilish va tushunish chavandozning asosiy vazifalaridan biridir.

Otning xarakteri, tezligi, chidamliligi va sezgirligi chavandozning muvaffaqiyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Chavandoz esa o‘z navbatida ot bilan uyg‘unlikda harakat qilishi, uni his qilishi va to‘g‘ri boshqarishi lozim. Bu uyg‘unlik yillar davomida shakllanadi va chinakam san‘at darajasiga ko‘tariladi. O‘zbek adabiyotida chavandozlik san‘ati keng va chuqur yoritilgan.

Xususan, Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasida uloq o‘yini orqali xalq hayoti, insoniy munosabatlar va fojiviy holatlar tasvirlangan. Asarda chavandozlikning nafaqat zavqli, balki xavfli jihatlari ham ochib beriladi.

XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida Abdulla Qodiriy alohida o‘rin tutadi. Uning ijodida milliy ruh, xalq hayoti, urf-odatlar va qadriyatlar nihoyatda jonli, tabiiy hamda hayotiy tasvirlangan. Adibning “Uloqda” hikoyasi ham ana shunday asarlar sirasiga kirib, unda o‘zbek xalqining qadimiy an‘analardan biri bo‘lgan chavandozlik, xususan uloq (ko‘pkari) o‘yini orqali jamiyat hayoti, inson ruhiyati va axloqiy qarashlar yoritib beriladi. Mazkur hikoya bir qarashda oddiy voqealar tasviridek tuyulsa-da, uning zamirida chuqur ijtimoiy va ma‘naviy mazmun mujassam. Asarda voqealar yosh bola – Turg‘un nigohi orqali bayon etiladi. Bu esa hikoyaga samimiylilik, beg‘uborlik va hayotiylik bag‘ishlaydi. Turg‘unning uloqqa borishga bo‘lgan ishtiyoqi, otga mehr qo‘yishi, chavandoz bo‘lish orzusi orqali bolalar psixologiyasi nihoyatda tabiiy ochib berilgan. Hikoyaning bosh qismida ot va inson o‘rtasidagi munosabatlar alohida e‘tiborga loyiq. Turg‘unning o‘z toychasiga mehr bilan qarashi, uni bezashi, egarlashi, har bir jihozga e‘tibor berishi – o‘zbek xalqining otga bo‘lgan alohida hurmati va mehrini ifodalaydi. Ot bu yerda oddiy hayvon emas, balki insonning do‘sti, sodiq hamrohi sifatida talqin qilinadi. Bu hol milliy qadriyatlarimizda chuqur ildiz otgan an‘analardan biridir.

Asarda chavandozlik san‘ati ham katta mahorat bilan tasvirlangan. Uloq o‘yini jarayonidagi tasvirlar juda jonli va dinamik: chavandozlarning kurashi, uloqni tortish, otlarning chopishi, tomoshabinlarning hayajoni – bularning barchasi o‘quvchini voqealar ichiga olib kiradi.

Muallif tasvir usullari orqali nafaqat voqeani ko‘rsatadi, balki o‘sha muhitni his qildiradi.

Ayniqsa, uloq sahnasidagi shovqin-suron, baqiriqlar, bahslar milliy koloritni yanada kuchaytiradi. Hikoyada xalqona xarakterlar ham yorqin ifodalangan. Oddiy odamlarning gap-so‘zlari, hazillari, bahslari orqali o‘zbek xalqining sodda, samimiy va jo‘shqin tabiati ochib beriladi. Chavandozlar orasidagi raqobat, o‘zini ko‘rsatishga intilish, shu bilan birga o‘zaro hurmat va birdamlik kabi jihatlar xalq hayotining ajralmas qismi sifatida gavdalanadi. Biroq asarning eng muhim jihatlaridan biri – uning fojiviy yakuni hisoblanadi. Uloq jarayonida Esonboyning ot ostida qolib vafot etishi voqeaga keskin burilish yasaydi. Bu epizod orqali muallif hayotning achchiq haqiqatini ko‘rsatadi: zavq va shodlik ortida xavf ham mavjud.

Insonlar o‘yin va g‘ayrat bilan berilib ketgan paytda hayotning qadrini unutib qo‘yishlari mumkin. Shu jihatdan hikoya o‘quvchini chuqur o‘yga toldiradi.

Turg‘unning yakuniy holati – uning bolalarcha beg‘ubor quvonchdan dahshat va tushunmovchilikka o‘tishi – asarning g‘oyaviy markazini tashkil etadi.

Kecha zavq bilan tomosha qilgan uloq bugun uning ongida fojiaga aylangan. Bu orqali muallif bolalikdan kattalikka o‘tish jarayonidagi ruhiy o‘zgarishni ham nozik tasvirlaydi.

“Uloqda” hikoyasida chavandozlik nafaqat sport yoki o‘yin sifatida, balki milliy an‘ana, jasorat va kuch ramzi sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, u insoniylik, mehr-oqibat, ehtiyotkorlik kabi qadriyatlar bilan uyg‘un holda yoritiladi. Ot va inson o‘rtasidagi aloqa esa sadoqat va do‘stlik timsoli sifatida barchamizga namoyon bo‘ladi hamda ong va shuurimizdan joy oladi.

XX asr o‘zbek nasrida inson ruhiyati, milliy qadriyatlar va hayotiy muammolarni chuqur badiiy talqin etgan ijodkorlar orasida Shukur Xolmirzayev alohida o‘rin tutadi. Adib asarlarida oddiy inson taqdiri, uning ichki kechinmalari, tabiat bilan uyg‘unligi va jamiyat bilan ziddiyatlari nihoyatda ta’sirchan ifodalanadi.

“Ot egasi” hikoyasi ham ana shunday chuqur falsafiy va dramatik mazmunga ega bo‘lgan asarlardan biridir. Mazkur hikoyada bosh qahramon Inod obrazi orqali insonning ichki dunyosi, uning ruhiy iztiroblari, sadoqati va or-nomusi yoritib beriladi. Asar boshida Inodning uchta “boyligi” sanab o‘tiladi: qishlog‘i, maktabi va oti. Bu uchlik aslida oddiy moddiy boyluk emas, balki qahramon hayotining ma’naviy tayanchlari hisoblanadi. Qishloq — uning vatani, ildizi; maktab — uning ma’rifat yo‘lidagi xizmatlari; ot esa — sadoqat, kuch va o‘tmish bilan bog‘liqlik timsolidir.

Ayniqsa, qorabayir ot obrazi hikoyada alohida ramziy ma’noga ega. Bu ot nafaqat Inodning yordamchisi, balki uning eng yaqin do‘sti, darddoshi sifatida gavdalanadi. Ot Inod hayotidagi og‘ir damlarda uni asrab qolgan, uni yolg‘izlikdan olib chiqqan kuch sifatida tasvirlanadi. Shu jihatdan qaraganda, ot obrazida sadoqat, matonat va insoniylik kabi fazilatlar mujassam. Hikoyaning dramatik burilishi Inodning oila a’zolaridan ayrilishi bilan boshlanadi.

Xotin va farzandlarining fojiviy halokati qahramon ruhiyatiga chuqur zarba beradi. Bu voqea orqali muallif inson boshiga tushadigan og‘ir sinovlarni, ularning ruhiy oqibatlarini nihoyatda ta’sirchan ko‘rsatadi. Inodning tog‘larga ketib, tabiat bag‘rida tasalli topishi esa o‘zbek adabiyotida ko‘p uchraydigan tabiat va inson uyg‘unligi g‘oyasini yana bir bor tasdiqlaydi.

Asarda jamiyat va shaxs o‘rtasidagi ziddiyat ham muhim o‘rin egallaydi. Davlat tomonidan chiqarilgan qaror — shaxsiy otlarni tortib olish siyosati Inodning ichki dunyosi bilan keskin to‘qnash keladi. Bu yerda yozuvchi oddiy insonning shaxsiy qadriyatlari bilan tizim talablari o‘rtasidagi murosasizlikni ochib beradi. Inod uchun ot oddiy mulk emas, balki uning hayot mazmuni, otasidan qolgan yodgorlik, ruhiy tayanchdir. Egamberdi obrazi orqali esa muallif jamiyatdagi ayrim illatlarni, xususan, manfaatparastlik, ikkiyuzlamachilik va mansabni suiiste’mol qilish kabi holatlarni ochib beradi. U dastlab vazifa bahonasida kelgan bo‘lsa-da, aslida otni o‘zlashtirish niyatida harakat qiladi. Bu esa insoniylikdan uzoqlashgan, ma’naviy qadriyatlarni unutgan shaxs obrazini yaratadi. Hikoyaning eng cho‘qqi nuqtasi — Inodning o‘z otini o‘zi otib o‘ldirishi epizodidir. Bu voqea asarning eng fojiviy va eng chuqur ma’noli qismidir.

Bir qarashda bu harakat shafqatsizlikdek tuyulishi mumkin, ammo aslida bu — qahramonning o‘z qadr-qimmatini saqlab qolish yo‘lida qilgan og‘ir, lekin ongli qaroridir. Inod otini begonalarga berishdan ko‘ra, uni o‘zi yo‘q qilishni afzal ko‘radi. Bu orqali u o‘zining ichki erkinligini, or-nomusini himoya qiladi. Otni ko‘mish sahnasi esa nihoyatda ramziy mazmunga ega.

Bu nafaqat jonivorni dafn etish, balki qahramonning o‘tmishi, dardi va iztiroblarini ham yerga topshirish jarayonidir. Shu bilan birga, bu sahna insonning eng yaqin narsasidan ayrilish fojiviy holatini chuqur his qildiradi. Hikoya yakunida Inodning yana qishlog‘i va maktabiga qaytishi muhim g‘oyaviy xulosani beradi. Demak, inson qanday sinovlardan o‘tmasin, uning hayotida ma’naviy tayanchlar — vatan, mehnat va jamiyat oldidagi burch ustuvor bo‘lib qoladi.

Inodning qalbida qolgan “ikki sevgilisi” — qishlog‘i va maktabi uning yashashga bo‘lgan irodasini tiklaydi.

O‘zbek nasrida ot va chavandozlik san’ati inson ruhiyati, ijtimoiy muhit va milliy qadriyatlarning badiiy talqini sifatida muhim o‘rin egallaydi. Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasi va Shukur Xolmirzayevning “Ot egasi” asari bunday timsollar orqali inson-ot munosabatini chuqur ifodalaydi.

Hikoyalardagi otlar nafaqat amaliy yordamchi sifatida, balki insonning sadoqat, jasorat, mehr-oqibat va ruhiy kechinmalarini aks ettiruvchi ramz sifatida ko'rsatiladi.

Chavandozlik san'ati esa faqat texnik ko'nikma emas, balki inson va ot o'rtasidagi chuqur bog'liqlik, mehr va ishonchni namoyon etadi. Bu asarlar orqali mualliflar o'zbek xalqona xarakteri, milliy qadriyatlari va ijtimoiy muhitining ta'sirini ko'rsatadi. Qishloq hayoti, maktab va oilaviy aloqalar orqali inson ruhiyati, mehr-muhabbat va mas'uliyat hissi badiiy tarzda ochib beriladi. Ot timsoli esa nafaqat individual qahramonlarning xarakterini yoritadi, balki xalqning tarixiy, madaniy va ma'naviy merosini ham ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, chavandozlik san'ati va ot timsoli o'zbek nasrida insoniy fazilatlarni, ijtimoiy muhitni va milliy qadriyatlarni tushunishda muhim vosita bo'lib qoladi.

Hikoya qahramonlarining hayoti, ruhiy kechinmalari va ot bilan bo'lgan munosabatlari o'quvchida sadoqat, jasorat va mehr-oqibat kabi qadriyatlarni qadrlashga undaydi. Natijada, ot timsoli va chavandozlik san'ati o'zbek adabiyotida badiiy, ma'naviy va madaniy ahamiyatga ega ekanligi aniq namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodiriy A. *“Uloqda”* – Hikoyalar to'plami. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2010. (19 bet).
2. Qodiriy A. *“O'tkan kunlar”*. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2010. (badiiy roman).
3. Qodiriy A. *“Mehrobdan chayon”*. Toshkent: Yangi nashr, 2006. (badiiy roman).
4. A'zamov I. *“Abdulla Qodiriy va uning asarlari”*. Toshkent: Fan nashriyoti, 1993. (darslik).
5. Rahmon O. *O'zbekiston adabiyoti tarixi*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002. (ilmiy tadqiqot).
6. Yunusxo'jayeva M. Shukur Xolmirzayevning “Odam”, “Ot egasi”, “Ota yurt” hikoyalari badiiyati.” *Modern Science and Research*, 2025, №5, B.629–631.
7. Normatov B.J. “Shukur Xolmirzayev ijodining o'zbek adabiyotidagi o'rni.” *Modern Education and Development*, 2026, Vol.46 №4.
8. Doniyorova S.H. *Shukur Xolmirzayev hikoyalarining badiiy-uslubiy o'ziga xosligi*. Filol. fanlari nomzodi diss. avtoref., Toshkent, 2000.
9. Kamolov A.K. *Shukur Xolmirzayev. Ijodiy portreti*. Toshkent: Qatortol-Kamolot, 1999.
10. Tavaldiyeva G. *Shukur Xolmirzayev ijodiy yo'li*. Toshkent: 2001. (ilmiy monografiya).